



Turin Politehnika universitetida yillik ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tdi

2023 yil 27 aprel kuni Toshkent shahridagi Turin politehnika universiteti tashkil etilganligining 14 yilligiga bag'ishlangan, an'anaviy tarzda o'tkazib kelinadigan professor-o'qituvchilar, ilmiy izlanuvchilar va talabalar ishtirokidagi ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tdi.





Ushbu konferensiyada Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti rektori, texnika fanlari doktori J.Sh.Inoyatxodjaev, yoshlar bilan ishlash bo'yicha birinchi prorektor A.A.Ashurov, moliyaviy- iqtisodiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor J.Abdujalilov, Strategik rivojlanish bo'limi boshlig'i O.Jo`rayev, Yoshlar bilan bo'limi boshlig'i G.A.Allamova, Tabiiy-Matematika fanlari kafedrasi mudiri prof. D.U.Tulyaganov, professor-o`qituvchilar, ilmiy tadqiqotchilar va talabalar ishtirok etdi.







Konferensiya ma'ruzalari mashinasozlik, energetika, tabiiy fanlar va matematika, ekologiya va atrof-muhit muammolari, muqobil energiya manbalari, materialshunoslik kabi mavzularga bag'ishlandi.

Jumladan talabalarning kimyo, fizika, zamonaviy matematikaning tatbiqlariga bag'ishlangan, shuningdek, muqobil energiya manbalarini ishlab chiqish, quyosh va shamol elektr stansiyalarini O'zbekistonda barpo qilishdagi o'z takliflari bo'yicha ma'ruzalari anjuman ishtirokchilarida katta qiziqish uyg'otdi.

Tadbir so'ngida universitet birinchi prorektori A.Ashurov ilmiy konferensiya har tomonlamana juda foydali va ko'tarinki ruhda o'tganligi bilan ishtirokchilarni tabriklab, professor-o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi haqiqiy ilmiy ko'priklar bo'lganini va bunday tadbirlar kelgusida ham albatta davom ettirilishini ta'kidladi. Barcha ishtirokchilarga sertifikatlar va esdalik sovg'alari topshirildi.



